



UDK: 159.8.076.45

Nodirbek ESHMURADOV,
Tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: bjurayev@gmail.com

DSc, professor B.Jurayev taqrizi asosida

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI PSIXIK BARQARORLIGINING TARKIBIY VA IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK KOMPONENTLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlari psixik barqarorligining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi hamda ijtimoiy-psixologik komponentlari tahlil qilingan. Xodimlarning murakkab va ekstremal xizmat faoliyatida psixik barqarorlikni ta'minlovchi shaxsiy, emotsional, motivatsion va kommunikativ omillar ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, psixik barqarorlikning kasbiy samaradorlik, stressga chidamlilik va xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: psixik barqarorlik, ichki ishlar organlari xodimlari, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, ijtimoiy-psixologik omillar, kasbiy faoliyat, kommunikativ kompetentlik.

СТРУКТУРНЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ ПСИХИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

В статье анализируются сущность психической устойчивости сотрудников органов внутренних дел, ее структурные и социально-психологические компоненты. Освещены личностные, эмоциональные, мотивационные и коммуникативные факторы, обеспечивающие психическую устойчивость в условиях экстремальной служебной деятельности. Обоснована роль психической устойчивости в повышении профессиональной эффективности и стрессоустойчивости сотрудников.

Ключевые слова: психическая устойчивость, сотрудники органов внутренних дел, стрессоустойчивость, эмоциональная устойчивость, социально-психологические факторы, профессиональная деятельность.

STRUCTURAL AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF THE PSYCHOLOGICAL RESILIENCE OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Annotation

The article examines the essence of psychological resilience among law enforcement officers and analyzes its structural and socio-psychological components. Personal, emotional, motivational, and communicative factors ensuring psychological resilience under stressful and extreme service conditions are highlighted. The significance of psychological resilience in maintaining professional effectiveness and stress resistance is substantiated.

Keywords: psychological resilience, law enforcement officers, stress resistance, emotional stability, socio-psychological factors, professional activity.

Kirish. Mamlakatimizda huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning xavfsizligini kafolatlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari xodimlari muhim o'rin tutadi. Ularning kasbiy faoliyati yuqori darajadagi psixologik zo'riqish, noaniqlik, xavf-xatar va mas'uliyat bilan bog'liq bo'lib, bu holat xodimlardan kuchli psixik barqarorlikni talab etadi.

Ichki ishlar organlari (IIV) xodimlarining psixik (psixologik) barqarorligi, uning tarkibiy va ijtimoiy-psixologik komponentlarini o'rganishga ham jahon, ham mahalliy (O'zbekiston) psixolog olimlari munosib hissa qo'shgan. Mazkur muammo ekstremal sharoitlarda xizmat olib boruvchi xodimlarning hissiy, irodaviy va kasbiy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan [1, 2].

Ushbu sohaga hissa qo'shgan asosiy olimlar va ularning tadqiqot yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonlik olimlarning hissasi. O'zbekistonda harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari psixologiyasi, ularning ijtimoiy moslashuvi hamda barqarorligini bevosita tizimli o'rgangan olimlar:

G'.B.Shoumarov – O'zbekistonda ijtimoiy psixologiya maktabi asoschilaridan biri bo'lib, shaxsning ijtimoiy-

psixologik muammolari, nizoli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlash va jamoadagi psixologik iqlimni o'rganishga rahbarlik qilgan. X. A. Abdrimov – Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuvning va kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus tadqiq etgan. B. M. Umarov – Shaxs psixologiyasi, "shaxs-jamiyat" tizimidagi munosabatlar va huquqbuzarliklar profilaktikasining psixologik asoslarini ishlab chiqqan. H. Ergashev – Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Jamoat xavfsizligi tizimi xodimlarida stressga barqarorlik tushunchasining mazmuni va uning tarkibiy qismlarini tizimlashtirgan. J. B. Atajanov – IIV tizimi xodimlarida psixologik barqarorlikning namoyon bo'lish xususiyatlari, qiyin xizmat vaziyatlarida ichki uyg'unlikni saqlash masalalarini o'rgangan.

Jahon va MDH olimlarining hissasi. Xodimlarning psixik barqarorligining tarkibiy qismlari (hissiy, axloqiy, xulq-atvor) asosan quyidagi olimlarning fundamental qarashlariga tayanadi: P. B. Zilberman, V. A. Marishchuk, L. V. Mitina – Stressli va ekstremal vaziyatlarda insonning hissiy (emotsional) barqarorligi komponentlarini tadqiq etganlar. V. E. Chudnovskiy – Shaxsning qiyinchiliklarga bardosh berishini ta'minlovchi axloqiy barqarorlik mezonlarini asoslab bergan. L.

I. Bojovich – Shaxsning muhit ta'siriga chidamliligi hamda xulq-atvor shakllarining barqarorligi tizimini o'rgangan. K. M. Gurevich, V. I. Lebedev — O'ta keskin, xavfli va ekstremal sharoitlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarining (shu jumladan harbiylashtirilgan tuzilmalar xodimlarining) psixofiziologik barqarorligini ishlab chiqqanlar.

Psixik barqarorlik shaxsning murakkab va stressli vaziyatlarda o'z faoliyatini samarali boshqarishi, hissiy muvozanatini saqlashi hamda tashqi ta'sirlarga nisbatan moslashuvchan munosabat bildira olish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlari uchun ushbu sifat kasbiy muvaffaqiyatning muhim psixologik sharti hisoblanadi.

Psixik barqarorlik muammosi psixologiya fanida turli olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, K.K. Platonov, B.F. Lomov, A.G. Maklakov, V.A. Bodrov, L.M. Mitina va boshqa olimlar psixik barqarorlikni shaxsning integral psixologik sifati sifatida talqin qilganlar. A.G. Maklakovning fikricha, psixik barqarorlik shaxsning adaptiv imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, stress omillari ta'sirida samarali faoliyatni saqlab qolish imkonini beradi. V.A. Bodrov esa uni kasbiy faoliyatning murakkab sharoitlarida psixofiziologik resurslarni optimal boshqarish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Ichki ishlar organlari faoliyatining o'ziga xosligi mazkur tushunchani kasbiy kontekstda o'rganishni talab qiladi. Chunki xizmat vazifalarini bajarish jarayonida xodimlar turli xavfli va ziddiyatli vaziyatlarga duch keladilar.

Psixik barqarorlikning tarkibiy komponentlari. Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra, ichki ishlar organlari xodimlari psixik barqarorligi quyidagi tarkibiy komponentlardan tashkil topadi:

Motivatsion komponent- kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqish, xizmat burchiga sodiqlik, ijtimoiy mas'uliyat hissi hamda kasbiy maqsadlarning aniqligi bilan tavsiflanadi. Kuchli motivatsiya xodimga murakkab vaziyatlarda ham faoliyat samaradorligini saqlab qolish imkonini beradi.

1. Emotsional Komponent

Emotsional komponent psixik barqarorlikning asosiy poydevori hisoblanadi. U quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

Emotsional barqarorlik – xodimning noxush hissiy holatlarga (qo'rquv, g'azab, tashvish, umidsizlik) tez muhtalo bo'lmasligi va his-tuyg'ularini nazorat ostida saqlay olish qobiliyatidir. Ekstremal vaziyatlarda – jinoyatchilar bilan yakkama-yakka duch kelish, o'lim hodisalari, zo'rvonlik ko'rinishlari – emotsional barqarorlik xodimni noto'g'ri qarorlar qabul qilishdan saqlaydi.

Emotsional regulatsiya — salbiy kechinmalarni ongli ravishda boshqarish, ularni "ichda" to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik. Bu ish paytida emotsiyalarni jilovlash, xizmatdan keyin esa ularni sog'lom yo'llar orqali chiqarish (sport, muloqot, dam olish) ni anglatadi.

Empatiya va uning muvozanati — jabrdiydalar, guvohlar va fuqarolar bilan ishlashda empatiya muhim bo'lsa-da, haddan ortiq hissiy ishtiroq "kasbiy yonib ketish" (burnout) ga olib kelishi mumkin. Sog'lom empatiya — bu "his qilish, lekin qo'shilmalik" printsipli asosida ishlash demakdir.

2. Irodaviy Komponent

Irodaviy komponent xodimning maqsadga erishishga bo'lgan ichki kuchi va o'z xatti-harakatlarini ongli boshqarish qobiliyatini ifodalaydi.

O'z-o'zini boshqarish (samoregulatsiya) — qiyin vaziyatlarda impulsiv harakatlardan saqlanish, o'ylangan qarorlar qabul qilish. Masalan, so'roq chog'ida yoki ommaviy tartibsizliklar vaqtida xodim g'azab yoki qo'rquvga berilmay, o'z majburiyatlariga sodiq qolishi shart.

Qat'iyatlilik va chidamlilik — uzoq va monoton xizmat turlari (kuzatuv, posbon xizmati), murakkab tergovlar davomida ruhiy charchashga qarshi turishni ta'minlaydi.

Maqsadga yo'nalganlik – kasbiy burch va mas'uliyat hissining kuchliligi xodimni ichki ziddiyatli holatlarda ham to'g'ri yo'ldan adashmaslikka yordam beradi.

3. Kognitiv (Bilish) Komponent

Vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati – xavfli yoki noaniq holatlarda tezkor va aniq ma'lumot qayta ishlash. Xodim vahima qo'yamay, mavjud ma'lumotlarga tayanib ratsional qaror qabul qila olishi lozim.

Elastik fikrlash (kognitiv moslashuvchanlik) — yangi, kutilmagan vaziyatlarga tezda moslashish, andozalashgan fikrlashdan chiqib, ijodiy yechimlar topish.

Stressni kognitiv qayta baholash — muammoli vaziyatni "falokat" sifatida emas, balki "hal etilishi mumkin bo'lgan vazifa" sifatida ko'rishni o'rganish. Bu texnika psixik zo'riqishni sezilarli darajada pasaytiradi.

Kasbiy deformatsiyadan himoya — uzoq xizmat davomida xodimda shubhachilik, shafqatsizlik yoki loqaydlik kabi salbiy xususiyatlar shakllanmasligi uchun kognitiv sog'lomligi muhim rol o'ynaydi.

4. Motivatsion Komponent

Ichki motivatsiya — kasbga nisbatan haqiqiy qiziqish, jamiyatga xizmat qilish istagi, adolat va tartibni ta'minlashdan qoniqish hissi. Ichki motivatsiyasi kuchli xodimlar tashqi bosim va qiyinchiliklarga nisbatan chidamliroq bo'ladi.

Ma'no-maqsad hissi — o'z ishinin ahamiyatini his etish psixik barqarorlikning muhim tarkibiy qismidir. "Nima uchun ishlayapman?" savoliga aniq javob bera oladigan xodim zo'riqish holatlarida ham ruhiy muvozanatini yo'qotmaydi.

Kasbiy o'z-o'zini hurmat qilish — o'z layoqatiga ishonch va kasbiy obro'ga ega bo'lish xodimni psixologik jihatdan mustahkam qiladi.

5. Jismoniy-fiziologik Komponent

Psixik barqarorlik faqat "ruhiy" hodisa emas — u jismoniy salomatlik bilan chambarchas bog'liq.

Stress-reaktivlik darajasi — nerv tizimining qo'zg'aluvchanlik va tormozlanish muvozanati. Past stress-reaktivlikka ega xodimlar ekstremal vaziyatlarda tezroq "soviydi" va o'zini tezroq tiklay oladi.

Uyqu va tiklanish — surunkali uyqusizlik psixik barqarorlikni eng tez buzadigan omillardan biridir. Smenali ish jadvalidagi xodimlar uchun bu muammo ayniqsa dolzarbdir.

Jismoniy tayyorgarlik — muntazam jismoniy mashg'ulotlar nafaqat tana salomatligini, balki ruhiy chidamlilikni ham oshiradi, kortizol (stress gormoni) darajasini tartibga soladi.

Psixik barqarorlikning ijtimoiy-psixologik komponentlari

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixik barqarorligi nafaqat individual xususiyatlar, balki ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham belgilanadi.

Kommunikativ kompetentli- xodimning fuqarolar, hamkasblar va rahbarlar bilan samarali muloqot qila olishi psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi hamda xizmat faoliyati samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash - Hamkasblar, rahbariyat va oila tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam psixik barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan xodimlarda kasbiy stress ko'rsatkichlari past bo'lishini ko'rsatadi.

Guruhiy birdamlik - jamoada o'zaro ishonch va hamkorlikning mavjudligi xodimlarning psixologik xavfsizligini ta'minlaydi hamda ekstremal vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini yaratadi.

Kasbiy identifikatsiya - xodimning o'z kasbiga ijobiy munosabati va kasbiy rolini qabul qilishi uning psixologik barqarorligini mustahkamlaydi. Kasbiy identifikatsiya darajasi

yuqori bo'lgan shaxslarda xizmat motivatsiyasi va stressga chidamlilik ham yuqori bo'ladi.

Liderlik va tashkiliy muhit - rahbarning boshqaruv uslubi, tashkilotdagi psixologik muhit hamda adolat

tamoyillarining ta'minlanishi psixik barqarorlikni shakllantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Ko'rsatkichlar	Toshkent (n=115)	M	Samarqand (n=115)	M	Qashqadaryo (n=115)	M	H	P
Ichki nazorat lokusi	34,8	201,84	31,9	170,62	29,7	146,04	14,72	0,001***
Tashqi nazorat lokusi	18,6	148,35	21,4	171,92	24,1	198,73	11,38	0,003**

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p \leq 0,001$.

Kruskal–Wallis mezon natijalariga ko'ra, ichki nazorat lokusi ($H=14,72$; $p=0,001$) hamda tashqi nazorat lokusi ($H=11,38$; $p=0,003$) ko'rsatkichlari bo'yicha hududlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ichki ishlar organlari xodimlarining subyektiv lokus nazorati hududlar kesimida turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Toshkent viloyati xodimlarida ichki nazorat lokusi ko'rsatkichi (34,8) boshqa hududlarga nisbatan yuqori bo'lib, ular xizmat faoliyati natijalarini ko'proq o'zlarining bilimlari, kasbiy mahorati va shaxsiy mas'uliyati bilan bog'lashga moyil ekanliklarini ko'rsatadi.

Samarqand viloyati xodimlari o'rtacha ko'rsatkichlarni namoyon etib, ichki va tashqi nazorat omillari o'rtasida muvozanatli pozitsiyani egallaganligi kuzatildi. Qashqadaryo viloyati xodimlarida esa ichki nazorat lokusi nisbatan past (29,7), tashqi nazorat lokusi esa yuqoriroq (24,1) ekanligi aniqlandi. Bu ayrim vaziyatlarda xizmat natijalarini tashqi sharoitlar, rahbariyat qarorlari yoki boshqa omillar bilan izohlash tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ichki nazorat lokusining yuqori darajada rivojlanganligi xodimlarning psixik barqarorligi, kasbiy mas'uliyati, stressga chidamliligi va ekstremal vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ichki ishlar organlari xodimlarida internallikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik

treninglar va kasbiy rivojlantirish dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarining psixik barqarorligi murakkab integrativ tizim bo'lib, unda individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik omillar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Tarkibiy komponentlarning rivojlanganligi xodimning stressga chidamliligini oshirsa, ijtimoiy-psixologik komponentlar ushbu sifatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bois ichki ishlar organlari tizimida psixologik tayyorgarlik, stress-menejment dasturlari, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish treninglari va psixologik profilaktika tadbirlarini muntazam amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda ichki ishlar organlari xodimlarining psixik barqarorligi kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim integral psixologik sifat hisoblanadi. Psixik barqarorlik motivatsion, kognitiv, emotsional, irodaviy va xulq-atvor komponentlaridan tashkil topadi. Kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, guruhviy birdamlik, kasbiy identifikatsiya va tashkiliy muhit psixik barqarorlikning asosiy ijtimoiy-psixologik komponentlari hisoblanadi. Psixik barqarorlikni rivojlantirish ichki ishlar organlari xodimlarining stressga chidamliligini oshirish hamda xizmat faoliyati samaradorligini ta'minlashning muhim omilidir.

ADABIYOTLAR

1. Маклаков А.Г. Общая психология. – СПб.: Питер, 2018.
2. Бодров В.А. Психология профессиональной деятельности. – М.: Институт психологии РАН, 2019.
3. Платонов К.К. Структура и развитие личности. – М.: Наука, 1986.
4. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – М.: Наука, 1984.
5. Митина Л.М. Психология профессионального развития личности. – М.: Академия, 2002.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
7. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.